



BEG'UBOR BOLALIK OLAMINING KUYCHISI - XUDOYBERDI TO'XTABOYEV

¹Sevinchoy Nurimmatova Karimboy qizi

1-bosqich talabasi, Berdaq nomidagi
qoraqolpoq davlat universiteti, Nukus,

²Axmedova Sarvinoz Alimardon qizi

2-bosqich talabasi, Berdaq nomidagi
qoraqolpoq davlat universiteti, Nukus,

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7808113>

ARTICLE INFO

Received: 28th March 2023

Accepted: 06th April 2023

Online: 07th April 2023

KEY WORDS

Bolalar adabiyoti, badiiy asar, mazmun va shakl, mavzu va g'oya, asar kompozitsiyasi, badiiy til va so'z qo'llash, badiiy obraz, portret va peyzaj tasviri, harakter va mahorat.

ABSTRACT

Ushbu maqolada adabiyotimizning yorqin vakili Xudoyberdi To'xtaboyevning bolalar adabiyotida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan asarlari va bolalar adabiyotida shaffof bolalar obrazlarini yaratish masalasiga doir ilmiy - nazariy qarashlar ifodalangan. Jumladan, Xudoyberdi To'xtaboyevning bolalar uchun yaratilgan asarlarida mazmun va shakl, mavzu va g'oya, asar kompozitsiyasi, badiiy til va so'z qo'llash, portret va peyzaj tasviri, harakter va obraz yaratish mahorati tadqiqi bo'yicha fikrlar keltirilgan. Shuningdek, Xudoyberdi To'xtaboyev asarlarida bolalar obrazlarini yaratilishidagi umumiylik, xususiylik, ulardagi o'ziga xoslik yoritib o'tilgan. Yozuvchining beg'ubor bolalik olamini tasvirlashdagi qirralari xususida to'xtalgan. Ijodkor mahoratini belgilovchi adabiy - estetik omillar bo'yicha mulohazalar bayon etilgan.

"Bolalar uchun kitob yozadigan kishi g'oyat usta san'atkor, katta tajribali pedagog, tilning zarshunosi bo'lmog'i kerak" [1.77].

Ijodkorlarning tug'ilishi har xil bo'ladi . Go'daklar asta - sekin yurishni o'rganganidek, uzoq vaqt davomida adabiyot alifbosini o'zlashtiradi. Izlanadi va oxiri qiynalib bo'lsa - da, o'z yo'lini topib oladi. Shunday ijodkorlar tug'iladiki, dastlabki qadamlaridanoq hammani lol qoldirib, tuyg'ularini, fikrlarini, hislarini "Afsonalarning tushiga kirmagan" so'zlarda kuylay boshlaydi. Xuddi shunday sehrli qalam sohibi, beg'ubor bolalik olamining kuychisi Xudoyberdi To'xtaboyevdir...

Bu nomni eshitganda yoki o'qiganda katta - kichik barchaning, yuz - ko'ziga bir iliqlik yoyilishini kuzatish mumkin. Ijodkorning kitobxonlar qalbiga bu qadar chuqur kirib borishining sababini tasmollaymiz. O'zbek bolalar adabiyoti dovru'g'ini nafaqat rus, ukrain, qozoq, gruzin, qirg'iz, belorus, turkman kabi hamdo'stlik mamlakatlari kitobxonlari, balki uzoq xorijlik - ingliz, arab, yapon, nemis, fransuz, chex bolalari orasida ham keng yoyilib kelayotgan, adibning badiiy mahoratini yuksaltirgan omillar shaffof bolalar obrazi ekanligini ko'rishimiz mumkin. "Har bir yozuvchining o'ziga xos hayot yo'li bor, - deb yozgan edi,



akademik, M. Qo'shchanov "Sariq devni minib kitobidagi so'zboshisida, - Tabiiyki, u tug'ilib o'sgan muhit ham o'ziga xos bo'ladi". [2. 4]

Darhaqiqat , adib qalamga olgan qahramonlar ruhiyati ich - ichiga kirib borish, surati va siyrati tasvirining uyg'unligiga erishish orqali kitobxonning o'zligini anglashga yo'naltirilishini badiiy adabiyotning bosh vazifasi deb bilgan adib jahonga mashhur "Sehrlil qalpoqcha", "Sariq devni minib" asarlarini yaratgunga qadar katta hayot va ijod maktabini o'taydi. Adib asarlari xususida gap ketganda, bolaligida boshidan kechirgan turmush mashaqqatlari, bobosi va buvisi tarbiyasi, o'qituvchilik faoliyati, gazetalar tahririyatidagi felyetonchiligi bo'lajak yozuvchini hayotga jiddiy ko'z bilan qarashga yo'naltirganini sezish qiyin kechmaydi.

"Mening bolalik va o'smirlik yillarim, - deb yozadi X.To'xtaboyev, - urush davriga to'g'ri kelgan. Ota - onasiz yetim qolgan hamqishloqlarimning o'kinch armonlarini eshitganman. O'g'lidan qora xat kelgan onalarning ko'ksini yulib dodlaganlarini, akasini intizor kutayotgan singillarning, eridan barvaqt judo bo'lgan yosh - yosh juvonlarning pinhoni ko'z yoshlarini ko'rganman. O'gay otam usta Abduqodir ishchi batalonga ketgach, biz oilada sakkiz kishi qoldik. Men ular bilan rosa bolalar uyidan, bolalar uyiga o'tib "sayr" qilganman. Hatto Toshkentdan Qo'qongacha piyoda kelgan paytlarim bo'lgan". [2.5]. Dindor buvisi bilan bobosining ko'ngliga taskin beruvchi hikoya va ertaklar ruhida tarbiya topgan yozuvchi asarlari dev, jin, kabi majoziy obrazlarga keng o'rin berilishi , " bulutdek baland", "na'ra tortganda xonaning shifti ko'tarilayotgandek bo'ladi" singari afsonaviy qahramonlarga xos obrazli iboralarning ishlatilishi tabiiy.

Har qanday yozuvchining karakter yaratish mahorati bilan bog'liq bu xususiyatni X. To'xtaboyevning asarlari syujetining qiziqarliligi va badiiy tilning o'ziga xosligini ta'minlagan omillardan biri sifatida baholash mumkin. Xudoyberdi To'xtaboyev ijodidagina emas, o'zbek bolalar adabiyotida ham muhim sahifani tashkil etadigan "Sariq devni minib" romanidir.

Asardagi sehrlil qalpoqcha ramziy timsolini adibning jiddiy ijodiy topilmasi. Chunki sehrlil qalpoqcha faqatgina muallif badiiy niyatini yoritib bermasdan , kitobxonning qiziqishini tutib turuvchi vosita vazifasini ham bajaradi . Asar bosh qahramoni Hoshimjonning sehrlil qalpoqcha yordamida turli xil voqea - hodisalarga duch kelishi roman syujeti qurilishida muhim o'rin tutadi . Natijada kitobxon har narsaga qodir sehrlil qalpoqcha yordam bergan taqdirda ham, bilim olmasdan , biron kasb - hunarning boshini tutmasdan , hayotda o'z o'rnini topib baxtli bo'lmasligiga ishonch hosil qiladi . Bu esa " bilim ol" , " hunar o'rgan" degan quruq pand - nasihatdan ming chandon ta'sirliroqdir .

X.To'xtaboyev qahramonlarining har biri o'ziga xos qiyofa va gapirish manerasiga ega bo'lsa - da, ularni quvnoq va hayotbaxsh yumor birlashtirib turadi. "Muallim: "Akbar Madumurov, doskaga chiq" , deydi . Chiqaman. "Demak, "Gibraltar bog'ozini" ni o'tganmiz , shundaymi?" "Shunday", deyman , "Qani, boshla" , deydi muallim. Ko'zlarimni xiyol qisib , chakkamni qashlab, bir oz jim turaman-da, boshlab yuboraman . Gibraltar bo'g'ozining qaysi dengizlarini tutashtirib turgani , bu dengizlar qaysi mamlakatga qarashli ekanligi, bog'ozning qaysi dengizlarni tutashtirib turgani, bu dengizlar qaysi mamlakatga qarashli ekanligi, bog'ozning yuk tashishdagi ahamiyati, bu bog'oz tufayli... deyman-u, keyin miyamda bog'oz so'zi aylanaveradi... To'satdan, sigirimiz bu yil bo'g'oz emas, esizgina, bu yil qisir qoldi-ya , deb o'ylayman . keyin o'yimni davom ettirib, endi sut-qatiq masalasi chatoq bo'ladi-da, shirguruch



qilmoqchi bo'lsak, tovoq ko'tarib Hoshimlarnikiga chiqishga to'g'ri keladi. Maqtanchoq Hoshimning buvijonisi sut berguncha, landovur dadang bitta sigirniyam qochirolmabdi-da, deb shunaqa diydiyo qiladiki, oxiri shu sutni ichgandan zahar ichgan ma'qul deb qaytayotganda sut to'la idishlarni yerga urgung keladi... Ana shunaqa gaplarni o'ylab ketaman. Qancha o'ylasam, o'yim shuncha chuvalashib ketaveradi...

- Nega jim qolding? - deb so'raydi muallim.
- Jim bo'lganim yo'q, - deyman hamon o'yga tolib .
- Gapir bo'lmasa, - deydi muallim yana.
- Sigirimiz bo'g'oz emas, - deyman.
- Nima?! - deydi muallim o'rnidan xiyol qo'zg'alib.
- Endi sut masalasi chatoq bo'ladi-da.
- Nima - nima ?! - deb muallim o'rnidan turib ketadi.
- Hoshimning buvisidan sut so'ragandan ko'ra... - deya duduqlana boshlayman.
- Tavba! - deya muallim yoqasini ushlab qoladi .
- Mahallamizda yaxshi buqa yo'q, - deyman-u, gapimning uyog'ini aytolmayman. Nega desangiz sinfda gurillab kulgi ko'tariladi. muallim ham kula boshlaydi. ko'pchilikdan qolish yaxshimas deb o'zim ham jo'r bo'laman. Miriqib -miriqib kulaman. muallim kulgidan to'xtab, qovog'ini uyib:

- O'tir, - deydi, - bahong - ikki!" [3.10].

X.To'xtaboyevning "Shirin qovunlar mamlakati" asaridan olingan ushbu parcha orqali biz asar qahramoni Akbardagi quvnoqlik, hoirjavoblik, bolalik olamining shaffof tasvirini adibning asarlaridan - asarlariga ko'chib yuruvchi xususyat ekanligining quyidagi "Besh bolali yigitcha" asaridan olingan parcha orqali ham ko'rishimiz mumkin"

"Roziq tog'am muallimlar stuliga o'tirib, sinfga ko'z yugurtirib chiqdi, qo'ltig'idan buklangan daftar olib oldingi partada, menga biron ish buyurib qolmasmikan , deb umidvor bo'lib ko'zini lo'q gilib o'tirgan Hamroqulga uzatdi:

- Ma, bor bolalarning familiyasini yozib qo'y.
- O'tgan jangda halok bo'lganlar ham yoziladimi? - so'radi Hamroqul.
- Yoziladi.
- Bedarak yo'qolganlar - chi? - savol berdi orqada o'tirganlardan biri
- Ahmoq! - dedi Roziq tog'am ovoz chiqqan tomonga garab.

- Domla, ahmoqlar qaysi ro'yxatga yoziladi? - deb so'radi boshqa burchakda o'tirganlardan biri sinfda yengilgina kulgi ko'tarildi, Roziq tog'am - ham kulib qo'ydi. Kula-kula sekin o'rnidan turayotgan edi, sinf yana jim bo'ldi. Nega desangiz, Roziq tog'am kulib-kulib odamning jonini oladi. Qulog'ingdan cho'zib, bo'yi barobar ko'taradi-da, to dodlab yubormaguningcha ushlab turaveradi . Xayriyat, bu gal unaqa qilmadi, yana o'rniga o'tirib:

- O'tgan darsda nimani o'tuvdik? - deb so'radi .
- Nasriddin afandining sarguzashtlarini, - javob qaytardi bir bola.
- Til ushlab kelishni.
- Akromning og'ziga latta tiqishni!

- Toshtemirning boshiga mushtlashni... - deya har tomondan chuvillab qolishdi bolalar. Muallim qarasa bo'lmaydigan, shartta o'rnidan turdi-da, oyog'i bog'langan xo'rozdek hakkalab kelib, Toshtemir bilan Akromning qulog'idan cho'za boshladi:



- Xo'sh, qaysi darsni o'tuvdik?

- Qulog'imni qo'yib yuborsangiz keyin aytaman, - yig'lamsirab dedi Akrom.

- Qaysi darsni o'tuvdik deyaqman! - quloqlarini battarroq cho'zdi muallim.

- Domla, o'tgan darsda quloq cho'zamanni o'ttik! - deb yana qiziqchilik qila boshladi Toshtemir." [4.46]

Parchani tahlil qilar ekanmiz, asarda tasvirlangan ikkinchi jahon urushi davri, jamiyatga, beg'ubor bolalik olamiga o'z ta'sirini o'tkazmasadan qolmaganining guvohi bo'lamiz. Orif va uning maktabdosh do'stlari, maktab o'qituvchisining bir - biri bilan muloqot jarayonida o'sha davr ruhiyatini ko'ramiz va adib asarlaridan asarlariga ko'chib yuruvchi bolalar obrazining umumlashma obrazini uchratamiz.

Yozuvchining asarlaridan asarlariga ko'chib yuruvchi qahramonlar ruhiyatidagi quvnoqlik, nutqidagi hozirjavoblik, zukkolik kitobxon qalbida iliqlik uyg'otadi. Asar qahramonlarining o'ta og'ir vaziyatlarda o'zini tutishi, sinovlarni mardona yengib o'tib, nurli manzillarga intilishi, ezgulikka sadoqatli tasviri orqali ma'naviy - axloqiy jihatdan g'oyat muhim xulosalarga kelinadi.

Bu esa deyarli hamma yozuvchilar orzu qiladigan, ammo ko'pchilikka nasib etavermaydigan badiiy barkamollik nishonasidir. Sehrgarlarning sahnalarda qo'lda tayoqcha bilan oddiy ko'z ilg'amaydigan mo'jizalar yaratishi ko'pchilikka ma'lum. X.To'xtaboyevning ham sehrli qalami bilan shunday mo'jizalar yaratadigan ijodkorlar sirasiga kiradi. Farqi shundaki, sahnadagi sehrgarlik faqat namoyish paytidagina ko'z oldingizda gavdalanadi. Yozuvchi asarlarini esa qayta - qayta mutola qilish orqali u yaratgan badiiyat olami ichiga chuqur kirib boriladi.

O'zbekiston xalq yozuvchisi X.To'xtaboyev asarlari tarqalish jug'rofiyasiga ko'ra jahongashta adibdir. Yozuvchi asarlari tug'ilganidan buyon necha - necha avlod bolalarining ham maslakdoshi va maslahatgo'yiga aylangan.

Ijodkor asarlarida ilgari surilgan badiiy ifodalar hali hamon ko'z o'ngimizda aks etib, quloqlarimiz ostida jaranglab turadi.

References:

1. M.Qo'shnazarova, A.Otaboyev "Jadid adabiyotining buyuk siymolari" - Toshkent. "Mahalla va oila". 2022.
2. X.To'xtaboyev. "Qaylardasan, bolaligim"- Toshkent. "Yangi asr avlodi". 2019.
3. X.To'xtaboyev. "Shirin qovunlar mamlakati yoki sehrgarlar janggi" - Toshkent. "Yangi asr avlodi". 2016.
4. X. To'xtaboyev. "Besh bolali yigitcha" - Toshkent . "Yangi asr avlodi" . 2009 .